

G'AFUR G'ULOM HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATINI O'RGANISH USLUBIYATI

Eshquvvatova Farangiz Oroljon qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 4 – kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7868080>

O'zbek adabiyotining taniqli namoyandasi G'afur G'ulom 1903-yilning 10-may kuni Toshkentning Qo'rg'ontegi mahallasida tug'ildi. 1916-yilda rus-tuzem maktabiga kirib o'qidi. 45 yillik ijodi davomida G'afur G'ulom ko'pdan ko'p she'r, doston, ocherk, feleton, hajviya, hikoya, qissa, maqola, tarjima asarlar e'lon qilgan. Yaxshilik, ezgulik, birodarlik, do'stlikni ulug'ladi. Kelajakka katta umidlar bilan qarashga undadi. Bular uning asarlariga xos bo'lgan muhim xususiyatlardir.

G'afur G'ulom Sharq mumtoz adabiyotining, zamonaviy o'zbek she'riyatining katta bilimdoni edi. 1943-yilda O'zbekiston fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi etib saylandi. Adib 1966-yilning 10-iyunida vafot etdi.

G'afur G'ulomga o'zbek adabiyoti, fani va madaniyati rivojiga qo'shgan ulkan hissasi uchun "O'zbekiston xalq shoiri" unvoni berildi, 1999-yilda Prezidentimiz farmoni bilan "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi.

2003-yilning may oyida G'afur G'ulom tavalludining 100 yilligi mamlakatimizda keng nishonlandi. Toshkent shahrining eng katta istirohat bog'laridan biriga shoir nomi bilan, haykali o'rnatildi. Metro bekatlaridan biri ham G'afur G'ulom nomi bilan ataldi.

G'afur G'ulom she'rlar bilan birga o'nlab hikoyalar "Netay", "Yodgor", "Tirilgan murda" singari qissalar ham yozdi. Ikkinchi jahon urushi paytida esa adibni dunyoga tanitgan mumtoz she'riy asarlari - "Kuzatish", "Sen yetim emassan", "Vaqt", "Sog'inish", "Onalar" singari she'rlari yaratildi. Uning mashhur asari- "Shum bola" qissasi 1936-yilda yozilgan bo'lsa-da, 60-yillarda adib uni qaytadan ishladi, yanada sayqalladi. G'afur G'ulomning o'zi "Vaqt" she'rida bashorat qilgan ezgu istaklari aynan mustaqillik yillarida ro'yobga chiqdi:

Hayot sharobidan bir qultum yutay,

Damlar g'aniymatdir, umr uzoq soqiy.

Quyosh-ku falakda kezib yuribdi,


Umrimiz boqiydir, umrimiz boqiy.

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida G'afur G'ulom hayoti va ijodi boyicha dars jarayonida quyidagicha "Blis – so'rov"ni yoki "Klaster"ni o'tkazish mumkin.

T/r	G'afur G'ulom	She'rlari	To'plamlari	Hikoyalari	Qissalari	Dostonlari	Ballaadalari
1	"Vaqt", "Sog'inish", "Ona", "Sen yetim emassan"	+					
2	"Dinamo" "Tirik qo'shiqlar"		+				

3	"Shum bola", "Yodgor", "Netay", "Tirilgan murda"				+		
4	"Mening o'g'rigina bolam", "Hiyla isha'riy"			+			
5	"Ko'kan"					+	
6	"To'y", "Ikki vasiqa"						+

G'.G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" asrini o'qitishda "Ma'ruza"dan foydalanish mumkin. Ma'ruza:Bu voqeyiy hikoya 1965- yilda yozilgan. Unda 1917-yillar voqealari aksetgan ,o'g'rini insofga keltirgan Roqiyabibi (kambag'al bo'lishiga qaramay, insoniyligini yuksak darajada saqlab qolgan mushtipar o'zbek kampiri) obrazi berilgan. Hikoya" Otamizning o'lganiga anchagina yil o'tib ketdi. Bu yil – o'nyettinchi yilning ko'klamida onamizdan ham ajralib ,shum yetim bo'lib qoldik" degan gaplar bilan boshlanadi. Asarda ikki nochor odam (Roqiyabibi va o'g'ri) ning bir-biriga arz-holigina emas, balki ularning taqdiri orqali xalqning ahvol-ruhiyasini jamuljam etilgan. Aslida biror odamning uyiga o'g'ri tushushi favquldda hodisa hisoblanadi. Bilamizki, o'g'rilik bu o'lkada oddiy hodisaga aylanib ulgurgan edi.Bunga sabab yurtida ketayotgan urush xalqning og'ir turmush sharoiti tufaylidir.Bu urush ko'plab boshqa millatlar qatori bizning xalqimiz boshiga ham cheksiz kulfatlar soldi. "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasi qahramonlari, aslida, manashu urushning tirik qurbonlaridir. Quyida hozir biz "Klaster" usuli orqali ikki qahramonning xarakterini taqqoslab **ko'ramiz**.



Ularning bir-birlariga munosabatlarida o'zbekka xos bo'lgan jami yaxshi fazilatlar mujassamligini o'quvchilarga uqtirish lozim, bu yoshlarni insoniylik ruhida tarbiyalashga yordam beradi. "O'g'ri" ning hikoya davomida o'quvchi nazarida yaxshi odamga, mehr va ardoqqa munosib kishiga aylanib qolishi yozuvchi mahoratining ajoyib sehri, adib realizmning mo'jizakor qudrati ekanligi ta'kidlanadi.

Hikoyani o'rganish jarayonida unda qo'llangan maqol-u mattallar, ko'chma ma'nodagi iboralar, tarixiy va arxaik so'zlar ham berilgan. Ularning ma'nolari izohlanadi. Masalan; "tiriklik toshdan qattiq", ya'ni yashash juda qiyin, "tuyaning ko'ziday non anqoga shapig'" non nihoyatda tansiq, kam, non topish juda qiyin, "qut loyamat" yetarli ovqat topish qiyin, "turib yeganga turumtog' chidamas" har kuni ishlamasa bir joydan biror narsa keltirilmasa hamma narsa tugaydi, yashash qiyin ma'nosida qullangan.

Mavzu yuzasidan quyidagi savollar tuziladi:

- 1.Nima uchun "qora buvi" o'g'ridan qo'rqmaydi?
- 2."Qora buvi" va "o'g'rigina bola" bir-biriga sirdosh bo'lib qolishiga sabab nima?
- 3."O'g'rigina bola" ning haqiqiy o'g'rilardan farqi nimada?
- 4.Hikoyachi bola "Men o'sha o'g'ri kishini tanir edim.Haligacha hech kimga kimligini aytgan emasman" deydi.Bolaning bu gapi uning qanday odam ekanligidan dalolat beradi?

References:

1. Adabiyot. 5- sinf darsligi 163-169 – betlar.
2. Adabiyot. Sharq nashriyoti -2012.255-256- betlar.
3. S.Mirvaliyev .O'zbek adiblari.Toshkent 1993-y 42-44-betlar.
4. O'zbek adabiyoti.Toshkent – 1995 – y. 156- 175- betlar.
5. Ziyonet .uz.
6. S.Matjonov,Sh.Sariyev Adabiyot 2012-y 253-254-betlar.